

**ANDIJON VILOYATIDAGI SANOAT KORXONALARINING  
MODDIY- TEXNIK HOLATIDAGI O'ZGARISHLAR VA ULARNI ISHCHI  
VA XIZMATCHILARNING MEHNAT MUHOFAZASIDAGI AHAMIYATI**

( Andijon viloyatida 1970-1991- yillarda chop etilgan vaqtli matbuot  
nashlaridagi maqolalar asosida)

**Turg'unov Sherzod Abduvositovich**

Magistr, Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

[turgunovs\\_979@gmail.com](mailto:turgunovs_979@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'tgan asrning 1970-1991-yillarida Andijon viloyatida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan ishlab chiqarish uskunlari va ularning ushbu korxonalarda mehnat qilayotgan ishchilarning mehnat muhofazasi va texnika havfsizligi talablarini bajarilishida tutgan o'rni haqida vaqtli matbuot nashrlarida chop etilgan maqolalar asosida tayyorlangan ma'lumotlar berilgan. Shuningdek maqolada sobiq Sovet Ittifoqida olib borilgan "Qoldiq" siyosati va uning milliy respublikalar sanoat korxonalarining hususan Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarining moddiy- texnik jihatdan rivojlanishiga ko'rsatgan salbiy oqibatlari haqida ham fikr mulohazalar taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar:** "Kommunist" gazetasi, Andijon Elektroapparat zavodi, Andijon Irmash zavodi, Elektrosvigatel zavodi, Poytug' payroq to'qish fabrikasi, Vimpel tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasi.

**Аннотация :** В данной статье представлена информация о значении оборудования внедренного в производственные процессы промышленных предприятий, действовавших в Андиканской области в 1970-1991 годах прошлого века, и их значении в обеспечении требований охраны труда и

технической безопасности работников, работающих на этих предприятий, на основе статей, опубликованных в периодических изданиях региона.

**Ключевые Слова :** Газета «Коммунист», Андижанский электропиборный завод, Андижанский завод Ирмаш, Андижанский электромоторный завод, Пойтугсая чулочно-носочная фабрика, Швейное производственное объединение «Вымпел»

**Abstrakt;** This article provides information on the importance of the equipment introduced into the production processes of the industrial enterprises operating in Andijan region in 1970-1991 of the last century and their importance in meeting the requirements of labor protection and technical safety of the workers working in these enterprises, based on the articles published in the periodical press publications of the region.

**Key words;** “Kommunist” newspaper, Andijan Electrical Equipment Plant, Andijan Electric Motor Plant, Andijan Irmash Plant, Poytug Hosiery Factory, ‘Vimpel’ sewing production association.

### KIRISH

Andijon viloyati sobiq sovet tuzumi davrida ham O‘zbekiston SSR iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan va sanoatning turli tarmoqlari yaxshi rivojlangan viloyatlardan biri hisoblangan. Andijon viloyatida 1970-1991 yillar davomida sanoatning turli tarmoqlariga mansub juda ko‘p sanoat korxonalari faoliyat olib borgan. Andijon viloyatida 1970-1991- yillar davomida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining faoliyatini o‘rganish jarayonlari asosan ana shu sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug’ullangan ishchi va xizmatchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari, mehnat muhofazasi, texnika havfsizligi tadbirlarini qay darajada amalga oshirilganligi va bu jarayonda korxonalarda foydalanilgan ishlab chiqarish uskunlarining ahamiyati nuqtayi nazaridan amalga oshirildi. O‘rganish jarayonida viloyatdagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarida foydalanilgan jihozlar, ularning ishchilar mehnat muhofazasiga va sog’ligiga ta’siri turli davrlarda turli darajada bo‘lganligi

aniqlandi.Bu jarayonda sanoat korxonasing sanoatning qaysi turiga mansubligi ham o‘ziga hos o‘rin tutganligi ma’lum bo‘ldi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Andijon viloyatida 1970-1991- yillarda faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining moddiy texnik holati va ushbu korxonalarda ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilgan mehnat muhofazasi , mehnat sharoitlari to‘g’risida Andijon viloyati partiya q’mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblanagan “Kommunist ” gazetasining 1970-1991-yillarda nashr qilingan sonlarida e’lon qilingan maqolalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.Andijon viloyati Andijon shahrida faoliyat olib borayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur nomli Axborot Kutubxona Markazining fondlarida saqlanayotgan o‘tgan asrning 70-90-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o‘rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritildi .Bu jarayonda ‘Kommunist” gazetasining 1970-1991 yillarda nashr etilgan sonlari xronologik tartibda ko‘rib chiqildi.Ushbu gazetaning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo‘lgan.Ushbu ruknnda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan bir qatorda mavjud kamchiliklar haqida, ,ularni sog’liklarini saqlash va mehnat qilish qobilyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar va shuningdek viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tamonidan qo‘yilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.Ushbu ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi.Bu jarayonda huddi shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida sanoat korxonalari yoki Sovet Ittifoqiga qardosh bo‘lgan xorijiy davlalar Bolgariya Xalq Respublikasi, Vengrya Xalq Respublikasi, Polsha Xalq Respublikalaridagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va korxonalarning moddiy –texnik jihatdan qurollanishi bo‘yicha ushbu gazetada berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarni o'rghanish asnosida Andijon viloyatida 1970-1991- yillar davomida sanoatning turli tarqmoqlariga mansub 100 dan ortiq sanoat korxonalari faoliyat olib borganligi va ushbu korxonalar iqtisodiy ahamiyati nuqtayi nazaridan quyidagicha tizimlashtirilganligi ma'lum bo'ldi.

### **1.Ittifoq va Ittifoq –Respublika ahamiyatifa ega bo'lgan sanoat korxonalari:**

Andijon Elektrodvigatel zavodi ,Andijon Elektroapparat zavodi,Andijon Irmash zavodi,Kommunar zavodi,Andijon Elektrtexnika zavodi,Gidroliz zavodi,Non kombinati,Yog'-moy kombinati,Konserva zavodi,Pivo va salqin ichimliklar zavodi,Andijon mebel fabrikasi,Andijon poyabzal fabrikasi,Andijon un zavodi,Volodarskiy nomidagi trikotaj fabrikasi,Andijon 1- paxta tozalash zavodi,Leninsk (hozirgi Marxamat tumani) paxta tozalash zavodi,Qo'rg'ontep a paxta tozalash zavodi,Poytug'paxta tozalsh zavodi,So'fiqishloq paxta tozalash zavodi,Qo'qonqishloq paxta tozalash zavodi,Kuyganyor temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish kombinati

### **2.Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan sanoat korxonalari :**

Eksperimental remont –mexanika zavodi,Oqyor remont zavodi,Andijon asfalt-beton va noruda mahsulotlar zavodi,Andijon badiiy buyumlar zavodi,Andijon viloyat ko'zi ojizlar o'quv ishlab chiqarish birlashmasi,Andijon viloyat kar-saqovlar o'quv ishlab chiqarish birlashmasi,Leninsk remont zavodi

### **3.Mahalliy Kengashlar tasarrufidagi sanoat korxonalar:**

Andijon galenteriya tikuvchilik fabrikasi,Andijon ho'jalik va madaniy mollar fabrikasi,Leninsk paxta momiq zavodi,Shahrixon shoyi to'qish fabrikasi [1.2-bet] ]

Ushbu sanoat korxonalarida o'tgan asrning 70–yillariga qadar ham korxonalarning moddiy texnik bazasini yangilash va ularni zamонавиу ,takomillashgan ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlash ishlari talab darajasida bo'lmaganligi birinchi navbatda korxonalarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning mehnat muhofazasini toliq ta'minlanishiga va ular uchun talab

darajasidagi qulay mehnat sharoitlarini yaratishga to'sqinlik qilgan. Hususan o'rganish jarayonida Yengil sanoat tarmog'iga mansub Andijon Trikotaj fabrikasi, Poytug' paypoq to'qish fabrikasi, Volodarskiy nomli Andijon tikuvchilk ishlab chiqarish birlashmalarida foydalanilgan to'quv va tikuv dastgohlari o'zidan baland ovoz chiqarib ishlashi natijasida ishchilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatganligi , Elektr apparatlari ishlab chiqarish sanoatiga mansub Andijon Elektrodvigatel zavodi, Andijon Eletrotexnika zavodlarida foydalanilgan ishlab chiqarish jihozlarida texnika havfsizligi talablari to'la ta'minlanmaganligi ma'lum bo'ldi. Faqatgina 1970-yillardan keyin Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jihozlarini zamonaviy , ish unumдорлиги yuqori va ishchilar uchun mehnat muhofazasi ta'minlanganlariga almashtirish jarayonlari amalga oshirila boshlangan. Bu jarayonda KPSS ning XXIV syezdida va O'zKPning XVIII syezdida qabul qilingan sanoat va ishlab chiqarishga yengi texnika va texnologiyarlari joriy etish tog'risidagi ko'rsatmalar va KPSS MQning 1984 yil aprel oyisa bo'lib o'tgan Aprel Plenumida qabul qilingan qarorlar asos bo'lib xizmat qilgan. Ana shu qarorlar asosida Andijon viloyatidagi yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan asosan qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan turli suv nasoslari va yerga ishlov berish mashinalarini ishlab chiqaruvchi "Andijon Irmash" zavodida 1971-1975- yillar davomida ishlab chiqarish jaryonlarida 3 ta avtomat payvandlash uskunasi ishga tushirilgan. Shuningdek zavodda yiliga 60 mingta magistral filtr qopqoqlari tayyorlaydigan patokli mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish uchastkasi ham ishga tushrilgan. Ushbu yangiliklar zavodda mehnat qilayotgan ishchilar ning og'ir qo'1 mehnatiga asoslangan mehnat jarayonlarini yengillashuviga yaqindan yordam bergan[2. Kommunist 1976-yil 2 fevral 23-son 2-bet.N.Murotov "Hamjihatlik"]

Andijon viloyatida 1970 yildan keying yillarda ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnika va texnologiyarlari tadbiq etish jarayonlari nafaqat Ittifoq ahamiyatiga ega sanoat korxonalarida balki Mahalliy kengashlar tasarrufida bo'lgan sanoat korxonalarida ham amalga oshirilgan. Masalan ana shunday fabrikalardan biri bo'lgan

Shaxrixon shoyi to‘qish fabrikasida ham 1976-yilda korxonada mehnat qilayotgan mehnatkashlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida To‘quvchilik sexiga takomillashgan to‘quv dastgohi o‘rnatilib ishga tushirilgan.Bu haqida ‘Kommunist’ gazetasining 1976- yil 9-mayda chop etilgan 114-sonida e’lon qilinga O.Adhamov muallifligidagi “Texnika taraqqiyoti-yutuqlar omili” nomli maqolada ma’lumotlar berilgan.Maqolada keltirlishicha ushbu korxonada oldin qo‘llanilgan to‘quv dastgohlarida to‘quvchilar uchun arqoq uzilishini nazorat qilish imkoniyati bo‘lmagan va arqoq (ipak ip) uzilishi natijasida to‘quvchilarning vaqtি bekorga sarflangan va bu o‘z navbatida to‘quvchilarni jismonan toliqishini kuchaytirgan.Yangi ishga tushirilgan to‘quv dastgohlari ipak ip uzilishini avtomatik tarzda nazorat qila olgan bu jarayon to‘quvchilarni mehnat sharoitlarini yengillashtirgan.[Kommunist .1976 y 9 may 114-son 2- bet O.Adhamov “Texnika taraqqiyoti- yutuqlar omili”] Keyingi yillarda ham Andijon viloyatidagi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlariga avtomatlashgan va qo‘l mehnatini kamaytirishga hizmat qiluvchi uskunalarini o‘rnatish va ishlab chiqarishga tadbiq etish jarayonlari davom etgan.

“Kommunist” gazetasining 1980 –yil 30 may sanasida chop etilgan 105- sonida e’lon qilingan I.Orlov muallifligidagi “ Ishchi mehnati-injener madadi” nomli maqolada berilgan ma’lumotga ko‘ra Andijon vilotidagi yengil sanoat tizimidagi yirik sanoat korxonalaridan biri bo‘lgan Andijon Trikotaj fabrikasida 1975-1980- yillar davomida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan 401 ta takomillashgan dastgohlar va uskunalar o‘rnatilib ishga tushirilgan.Hususan korxonada 1978 yilda ishga tushirilgan “Martin “ rusumli to‘quv dastgohi korxona ishchilarini mehnat sharoitlarini yengillashuviga sabab bo‘lgan bo‘lsa.ushbu fabrikaning bo‘yash sexida 1980 yilda ishga tushrilgan “KOVO” rusumli quritish mashinasi bo‘yash sexi ishchilarini matoni bo‘yash va unga gul bosish jarayonida kimyoviy moddalardan zararlanish darajasinin bir necha bor pasaytirgan.[3.2-bet]

Ishlab chiqarish jarayonlariga ilmiy yangiliklarni joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonida o‘g’ir qo‘l mehnatining salmog’ini pasaytirish imkoniyati yuzaga

kelgan.1980-yillarda boshlab Sovet Ittifoqida ham ishlab chiqarish jarayonlariga sanoat robotlarini tadbiq qilish amaliyoti keng joriy etila boshlangan. “Kommunist” gazetasining 1984-yil 26 aprelda chop etilgan 81-sonida ‘Stanok yonida robot’ sarlavhali maqola e’lon qilingan.Ushbu maqolada keltirilishicha 1984-yilda O’zbekiston Fanlar Akademiyasining “Kibernetika “ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi mutahasislari tamonidan Toshkent shahridagi “Mikond” zavodiga “РПД-1.25” rusumli sanoat roboti o’rnatilib ishlab chiqarish jarayonlarida sinovdan o’tkazilgan.Ushbu robotni ishga tushgirilishi natijasida ushbu zavodda detallarga mexanik, termik, kimyoviy ishlov berishdagi murakkabliklar barataraf etilgan.[4.2-bet]

Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonlarida og’ir qo‘l mehnatini salmog’ini kamaytirishda sanoat korxonalarida mehnat qilayogan ratsionalizatorlar va ixtirochiular tamonidan yaratilgan ixtiolar va ratsionalizatorlik loyihibarini ham ahamiyati katta bo‘lgan.Bunday ixtirochi va ratsionalizatorlar Andijon Poyabzal fabrikasida ham ko‘pchilikni tashkil etgan.An shunday ixtirochilardan biri fabrikaning yosh ishchilaridan biri X.Badalov bo‘lgan.Ushbu ixitorichi yaratgan yangilkardan biri tayyor poyabzal astarining ortiqcha qismini ishchilar qo‘l kuchi bilan qaychi vositasida kesish jarayonini mehanizatsiyalashtirishi bo‘lgan .Ushbu uskuna oddiy lelktr motoriga o’rnatilgan val yordamida harakatlangan va bu jarayondagi qo‘l mehnatiga barham berilgan.X.Badalov boshchiligidagi Andijon Poyabzal fabrikasi ixtirochi ishchilari endilikda poyabzalga kley (yelim) surtish ishlarini mexanizatsiyalash ustida ish olib borgan.Chunki poyabzalni terili ustki qisini pastki qism bilan birlashtiruvchi yelimning hidi juda yoqimsiz bo‘lib , yelimlash bo‘limida mehnat qiluvchi ishchilarning nafas olish yo‘llariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.[4.1-bet.Kommunist 1988 y 12 fevral 29-son A.Varopayev” Izlanuvchan ishchilar”]

Yana shunday yangiklardan biri Poytug’ paypoq to‘qish fabrikasida ham amalga oshirilgan.Ushbu fabrikada paypoq to‘qishn jarayonida yuzaga kelayotgan shovqin fabrikada mehnat qilayotgan to‘quvchilarni sog’liklariga salbiy ta’sir ko‘rsatib

kelgan.1991 yilda ushbu fabrikada direktor o‘rinbosari lavozimida faoliyat olibborayotgan T.Toshmatov rahbarligidagi yosh izlanuvchan ishchilar Samarqand shahridagi “Emotsiya” firmasi bilan hamkorlikda yangi uskuna yaratganlar.Ushbu uskunani fabrikaning ishlab chiqarish sex;lariga o‘rnatlishi natijasida paypoq to‘qish dastgohlaridan chiqayotgan shovqin ovozi bir necha bor pasaygan va uning o‘rini ushbu uskunadan taralayotgan yoqimli musiqa tovushi egallab ishchilarga ko‘tarinki kayfiyat bahshida etgan.[5.1-bet]Sobiq Sovet tuzumi davrida sanoat korxonalarining moddiy texnik ta’minoti masalasida markaziy hududlardagi sanoat korxonalari va milliy respublikalardagi sanoat korxonalari o‘rtasida katta farqlar mavjud bo‘lgan.Masalan 1989- yilda Moskva shahridagi “Vimpel” savdo-sotiq tikuvchilik birlashmasining sexlariga Ispaniyaning “Investrika” ,Germaniya Federativ Respublikasining ‘Bulmer” firmalarida ishlab chiqarilgan avtomatlashtirilgan bichish va ishlab chiqarish dastgohlari harid qilingan ishlab chiqarishga joriy etilgan.Ushbu dastgohlar ayollar paltolarini bichish uchun ketadigan vaqtini 4-5 barobar qisqartirgan.”Vimpel” birlashmasi eng zamonaviy texniklar bilan ta’minlangan ,ko‘pgina qo‘l mehnatiga asoslangan mehnat turlari avtomatlashtirilganm ishchilar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan zamonaviy korxona hisoblangan.[6.2-bet] Andijon viloyatidagi yengil sanoat tizimidagi tikuvchilik va to‘quvchilkk fabrikalarida foydalanilayotgan tikuv va to‘quv dastgohlari samaradorlik darajasi 1990- yilda ham past darajada bo‘lib bu dastgohlar qo‘llanilganda ulardan chiqayotgan baland shovqin,dastgohlardagi himoya jihozlaridagi nuqsonlar natijasida ushbu fabrikalarda mehnat qilayotgan ko‘plab ishchi va xizmatchilarning sog’lig’ida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelgan.Aynan hsu davrda RSFSR ning ba’zi shaharlarida joylashgan tikuvchilk fabrikalarida chet eldan sotib olingan zamonaviy tikuv va to‘quv dastgohlari ishchi kuchi yetishmasligi natijasida ishlatilmay chang bosib yotgan.[7.2-bet]

Bu jarayonni Kalinin shahridagi tikuvchilk birlashmasi misolida ko‘rish mumkin.Ushbu birlashmada ishlab chiqarish sexlari Yaponiya va Germaniya Demokratik Respublikasida ishlab chiqarilgan zamonaviy tikuvchilik dastgohlari bilan

jihozlangan.Tikuvchilik birlashmasida ishchilar uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan va bundan tashqari birlashmaga ishga kelgan har bir yangi tikuvchiga ana shunday zamonaviy dastgohlar biriktirilgan.Lekin ana shunday ijobiy sharoitlarga qaramasdan ushbu birlashmada ishchi kuchi yetishmasligi holati mavjud bo‘lgan. Andijon viloyatidagi tikuvchilik fabrikalarida esa hunar texnika bilim yurtidan ishlab chiqarish amaliyatiga kelgan va ishga yangi qabul qilingan ishchilarga ma’nan eskirgan , mehnat unumdorligi past bo‘lgan, mehnat muhofazasi talabalariga javob bermaydigan tikuvchilk dastgohlari taqdim qilingan.

## XULOSA

Andijon viloyatidagi Zahiriddin Muhamamad Bobur nomidagi Axborot kutubxona markazida saqlanayotgan o‘tgan asrning 70-90 yillariga mansub vaqtli matbuot nashrlari hususan Andijon viloyati partiya qo‘mitasi va Mehnatkash deputatlari viloyat Kengashining rasmiy nashri bo‘lgan “Kommunist” gazetasining 1970-1991- yillar davomida chop etilgan sonlarini o‘rganish va tahlil qilish jarayonida shunday xulosalar shakllandi.

Sovet Ittifoqidagi yakkahukmron partiya KPSS dasturlarida , ko‘rsatmalarida kommunistik partiyaning zarbdor kuchi deb hisoblangan ishchilar va xizmatchilar uchu qulay mehnat sharoitlari , farovon moddiy turmush tarzi yaratish bo‘yicha katta va’dalar berilgan bo‘lsada amalda 1990 –yillarga kelib sanoatning turli tarmoqlarida mehnat qilayotgan ishchi va ximzatchilarning o‘g’ir iqtisodiy ahvolga tushib qolishi, zavod va fabrikalardagi ishlab chiqarish jarayonlariga eng ilg’or texnika va texnologiyalarni joriy etish jarayonlari sekinlik bilan amalga oshirilishi, mehnatkashlarning sog’lig’iga salbiy ta’sir ko‘rstayotgan mehnat muhofazasi sohasidagi kamchiklarni bartaraf etilmaganligi mamlakatdagi millionlab mehnatkashlar orasida Kommunistik partiyaning obro‘sizlanishiga zamin yaratdi.Hukmron Markazning qoldiq siyosati natijasida milliy respublikalardagi sanoat korxonalarini moddiy-texnik jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlari deyarli amalga oshirilmadi. Sovet Ittifoqining markaziy hududlaridagi sanoat korxonalarini eng

zamonaviy ishlab chiqarish uskunalarini bilan jihozlash tadbirlari jadallik bilan amalga oshirilgan bo‘lsada Ittifoqning olis hududlaridagi sanoatning turli tarmoqlariga mansub sanoat korxonalarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilar og‘ir mehnat sharoitida, qo‘l mehnati salmog‘i yuqori bo‘lgan mehnat sharoitlarida ishlashda davom etaverdi. Ishchilarning mehnat sharoitlaridan noroziligi, hom ashyo tanqisligi natijasida yuzaga kelgan ish o‘rinlarini qisqarishhi, oylik maoshlar masalasiidagi uzilishlar kabi jarayonlar Sovet Ittifoqida 1990- 1991- yillarda yuzaga kelgan og‘ir siyosiy vaziyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadidi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. “Kommunist” gazetasi.1976 yil.11 fevral 29-son, 2-bet.Andijon viloyat Statistika Boshqarmasi axborotnomasi
2. “Kommunist” gazetasi .1976 y 9 may 114-son 2- bet O.Adhamov “Texnika taraqqiyoti- yutuqlar omili”
3. “Kommunist” gazetasi .1980 yil 30 may, 105-son, 2-bet.I.Oripov “Ishchi mehnati-injener madadi”
4. “Kommunist” gazetasi.1988 yil 12 fevral 29-son A.Varopayev “Izlanuvchan ishchilar”
5. ”Kommunist” gazetasi.1991yil15 avgust.154-son 1-bet.B.Madrahimov “Shovqin o‘rniga musiqa”
6. ”Kommunist “ gazetasi 1989 yil 24noyabr 225-son 2-bet .TASS “Elektron bichuvchi”
7. “Kommunist” gazetasi.1990 yil30 mart,62-son 2-betA.Mirzajon “Yurakdan o‘rgatsa- dildan o‘rgansa”